



**BIOETIKA O'RGANADIGAN MUAMMOLAR, BIOETIKANI FAN
SIFATIDA SHAKLLANISHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13200113>

Po'latova Dilafroz Ravshanbek qizi

Toshpo'latova Dilnoza Musayevna

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi Hamshiralik ishi kafedrasini o'qituvchilari

ANNOTATSIYA

Bioetika (qad. yunon. "bios" – "hayot" , "aethos" – "hulq, qilmishlar") – meditsina va biologiyada inson faoliyatining ahloqiy jihatlari haqidagi ta'limotdir. Etika - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ahloq, hulq, odob ma'nolarini ifodalaydi. Etika falsafiy fan hisoblanib ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ahloqning kelib chiqishi, ahloqiy tarbiyaning taraqqiyot bosqichlari, ahloqning ilmiy- nazariy asoslari, ahloqning mezoniy tushunchalari, ahloqiy tarbiya shakllarini o'rganadi

Kalit so'zlar

Bioetika, etika, meditsina, radikal muolaja, evtanaziya, xospis, deontologiya,

Bioethics atamasi ilk bor 1927-yilda nemis pastori Frits Yar tomonidan ishlatilgan. U Immanuel Kantning qat'iy imperativiga qarshi bioetik imperativni ta'riflab bergan. Unga ko'ra, nafaqat insonga, balki, hayvonlar va o'simliklarga hurmat bilan munosabat qilish talab etiladi.

Encyclopedia of Bioethics da (1-tom, XXI-mavzu) bioetika – "biologiya va meditsina fanlarining ahloqiy parametrlari, yutuqlari, shu jumladan, ahloqiy baho berish, qarorlar, hulq, orientirlar va shu kabilarni muntazam o'rganish" deb ta'riflanadi.

Tor ma'noda bioetika atamasi shifokor va bemor munosabatida barcha doiradagi etik muammolarni bildiradi. Keng ma'noda bioetika atamasi nafaqat insonga, balki, insonni o'rab turgan ekotizimlarga kiradigan barcha tirik organizmlarga taaluqli bo'lgan ijtimoiy, ekologik, tibbiy va ijtimoiy-huquqiy muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Oksford lug'atida bioetikaga quyidagicha ta'rif berilgan: bioetika – mavzusi meditsina va biologiya rivojlanishi davomida paydo bo'ladigan etik muammolardan iborat bo'lgan fandır.

Meditsina etikasi tarixi zamonaviy bosqichining boshlanishi Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq. Fashist Germaniyasi tor-mor etilganidan so'ng dunyo hamjamiyati uchun natsistlar meditsinasining jinoyatlari ochilib qoldi: yarim

millionga yaqin insonlarni sterilizatsiya qilinishi, 100 mingdan ortiq davolab bo'lmaydigan ruhiy bemorlarni zo'rlik bilan evtanaziya qilinishi, konslagerlar mahbuslari ustida o'tkazilgan o'ta darajada havfli tibbiy tajribalar va h.k. Aslini olganda, meditsina natsist shifokorlari amaliyotida "etik nol" (boshqachasiga - uch pul) darajasiga tushib qolgan edi. Dunyo hamjamiyati tomonidan qoralangan ushbu ahloqsiz tibbiyot amaliyoti 1947-yilda "Nyurnberg kodeksi", ya'ni odamlarda tibbiy tajribalar o'tkazilishining 10 ta etik qoidalarini qabul qilinishiga asos bo'lgan (3-qism, 2-ilova). Bu bioetika bo'yicha birinchi halqaro normativ hujjat bo'lgan. Ushbu hujjatning diqqatga sazovor joyi shundaki, u natsist shifokorlariga chiqarilgan "Hukm" ga "Ilova" bo'lgan.

Shu bilan bir vaqtda kodeksda bayon qilingan prinsiplar - qonun talablari emas, balki ahloq normalari bo'lib, majburiy hisoblanmagan.

2. Tibbiyot bioetikasi fani o'rganuvchi muammolar:

Bioetika fani o'rganuvchi muammolar:

- Reproduktiv texnologiyalar (suniy urug'lantirish, "probirkada" urug'lantirish, surrogat onalik) va abort, kontrasepsiya;
- inson va xayvonlarda tadqiqot o'tkazish;
- Bemorni o'tkaziladigan radikal muolajalarga munosabati, uni shu masalalardagi xuquqi;
- O'lim tushunchasini aniqlashtirish, o'zini o'ldirish va evtanaziya (faol, sust, ko'ngilli);
 - O'lishi aniq bemorlarga munosabat (xospislar);
 - Vaksinatziya va OITS;
 - Oilani rejalashtirish va demografiya masalalari;
 - Genetika muammolari (gen tadqiqotlari, gen injeneriyasi genoterapiya);
 - Transplantologiya;
 - Sog'liqni saqlash soxasida odilona xolislik;
 - Insonni klonlashtirish ;
 - O'zak xujayralar bilan tadqiqotlar va boshqa masalalar.

Tibbiyot bioetikasi muloqot modellari.

Shifokor muloqotining modeli deganda bemor bilan bo'ladigan muloqotning ko'rinishi, shakli, mazmuni, maqsadi va suxbat olib borish tarzi tushuniladi

Muloqotning tarixiy modellari:

1. Gippokrat modeli (bemorga zarar keltirmaslik).

Gippokrat (460-377 E.A.) qasamyodida bu modelni tarifi bor. "Bemorga zarar keltirma, bemorni axvolini yomonlashtiradigan muolaja qilinmasin». Muolaja va



diagnostika niyatida qilinadigan chora tadbirlar natijasida bemorga ruxiy va jismoniy zarar yetqazmaslik xamda evtanaziyaga yo‘l qo‘ymaslik nazarda tutiladi.

2. Parasels modeli -mehribonlik qilish, bemorga ota -onasi kabi g‘amxo‘rlik qilish va bemor salomatligi javobgarligini o‘z zimmasiga olish.

Parasels (1493-1541 y.m.) – paternalism (pater- "ota"lat.), g‘oyasining mazmuni shifokorni muolaja jarayonida bemorga otalarcha munosabat, yoki vasiylik qilish ma‘nosini anglatadi, demak bemorni shifokorga to‘liq ixlosi bo‘lib, barcha muolajalarni muxokama qilmay to‘liq bajarishi tushuniladi.

3. Deontologiya modeli (Shifokor burchi). Deon -burch, logos-fan ma‘nosida bo‘lib, burch qoidalariga va shifokorlik qasamyodiga rioya qilish va bemorga kim bo‘lishidan qat‘iy nazar sidqidildan muolaja o‘tqazish, uni parvarishlash xamda to‘liq fidokorlik nazarda tutiladi.

4. Bioetika modeli (inson sha‘ni va xuquqini xurmat qilish). Barcha diagnostik va davo muolajalarni va kasalligi to‘g‘risida bemor shani va xaq-xuquqlariga zid kelmasligiga rioya qilgan xamda yatrogeniyaga sabab bo‘lmaydigan tarzda bu jarayonlar to‘g‘risida bemorlarga ma‘lumot berish va ularning roziligi bilan muolaja va tekshiruvlar o‘tqazish tushuniladi.

Bioetika modelining bir turi- axborot kelishuvchanligi tamoyilini 1972 y. Amerika shifoxonalari assotsiatsiyasi qabul qilgan. Bu tamoyilda shifokor bemorga kasallik, muolaja va uni zaruriyati to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot beradi. Bemor o‘zi ongli muolaja turini tanlashi kerak.

“Bioetika” atamasini 1969-yilda ilmiy foydalanishga kiritgan va uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab bergan amerikalik biokimyogar va insonparvar Van Rensseler Potterni (1911-2001) bioetikaning asoschisi deb hisoblashadi. XX asrning 70-yillarida bioetikani gurkirab rivojlanishi, avvalambor, yangi biomeditsina texnologiyalarini tatbiq etilishi bilan bog‘liq: translantologiya va gen injeneriyasining rivoj topishi, tibbiy diagnostika va inson reproduksiyasi usullari sohasidagi taraqqiyot, hayvonlar va odamlardan klinik tadqiqotlar va ilmiy tajribalarda foydalanish va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning hammasi ilgari insoniyat oldida turmagan ahloqiy muammolarni hal etish zaruratiga olib keladi.

V.R. Potter etikani qo‘llanilishi faqatgina insoniy munosabatlar sohasi bilan cheklanib qolmasdan, balki hayotning turli-tuman ko‘rinishlari sohasiga inson aralashuvini tartibga solish maqsadida uni butun boshli biosferaga tatbiq etish kerakligiga ishonadi. Masalan, o‘zining “Bioetika: kelajakka ko‘prik” (1971) fundamental asarida u shunday deb yozadi: “Ushbu kitobning maqsadi – Bioetika deb nomlanadigan yangi mustaqil fan sohasini shakllantirish yo‘li bilan insoniyat kelajagiga hissa qo‘shishdir. Agar, aftidan dialogga qodir bo‘lmagan “ikki madaniyat” – fan va gumanitar bilim – mavjud bo‘lib va aynan bu xolat kelajakni



ro'yobga chiqishini shubha ostiga qo'yayotgan sabablardan biri bo'lsa, unda shunga qaramasdan ham biz ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik kabi bu yangi fan yordamida "kelajakga ko'prik"ni qurishimiz mumkin".

Bioetika masalalarini hal qilish uchun javobgarlik asosan butun dunyo bo'yicha mavjud bioetik qo'mitalarga topshirilgan. Ular orasida YuNESKO, Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Yevropa ittifoqi uridagi Bioetika bo'yicha qo'mitalar, AQShda - Nyu-York yaqinidagi Gastings-markazi, Monreal (Kanada) tibbiy-tadqiqotlar instituti hO'z uridagi Bioetika bo'yicha markaz, Jorjtaun universiteti ho'z uridagi, Kennedi asos solgan, Etika bo'yicha institut kabi eng mashhur markazlar faoliyat yuritadi. Bioetika masalalari bo'yicha milliy va halqaro jurnallar chop etiladi. 1978-yilda boshlab yuborilgan "Bioetika bo'yicha ensiklopediya" (5 jildidan iborat) nashri dunyo yuzini ko'rdi.

Andreas Vezaliyning katta bobosining otasi Lyoven katolik universiteti (1425 yilda asos solingan; Lyoven shahri, Belgiya) rektori va Abu ali Ibn Sinoning sharhlovchisi bo'lganligi e'tiborga loyiq. Og'riqni qoldiradigan dorilar faqat XIX asrning boshida ochilganligi tufayli, tajriba o'tkazganda Vezaliy narkozdan foydalanmagan. Bunday tajribalar viviseksiya nomini olgan bo'lib, o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turgan. Bu davrda qiynoqqa solishlar odatiy xol bo'lgani uchun (ilohiy inkvizitsiya) viviseksiya shafqatsizliklari bo'yicha jamoat o'z fikrini amalda bildirmagan.

Viviseksiya haqida tushuncha hosil qilish uchun A. Vezaliyning ba'zi bir tavsiyalarini keltirib o'tamiz: "Demak, o'pka ko'krak qafasi harakatiga ergashib kelishi shundan ma'lumki, qachonki qovurg'alarining biror oralig'idan to ko'krak qafasi bo'shlig'igacha kesim o'tkazsang, o'pkaning shikastlangan qismi qaytadi va ortiq ko'krak qafasi bilan kengaymaydi, shu paytda o'pkaning boshqa qismi hamon uning harakatiga ergashadi; agarda ko'krak qafasi bo'shlig'ining boshqa tomonidan ham kesim o'tkazsang, u ham tez orada qaytadi. Shu tarzda hayvon ham ko'krak qafasini qanchadir muddat harakatga keltirib tursa ham, lekin bo'g'ib o'ldirilgandek u ham jon beradi. O'pka tabiiy ravishda ko'krak qafasidan keyin kelishini ko'rish uchun esa sen boshqa biqindagi ikki yoki uchta qovurg'aning kemirchaklarini shartta chopib tashlaysan va ushbu qovurg'alar oraliqlari bo'ylab kesim o'tkazgach, qo'l tegizilmagan biqin o'pkasini ko'rishing mumkin bo'lgan qulay joy yaratish uchun qovurg'alarni alohida-alohida tashqariga egib sindirib tashlaysan. So'ngra, men yuqorida ta'riflab berishni va'da qilgan kesimni meshqorin kuchuk yoki cho'chqada qo'llaysan, tovushini hisobga olganda cho'chqa ma'qulroq. Axir qanchadir muddatga bog'lab qo'yilgan kuchukka sen xar qanaqasiga jonini og'ritmagin u ba'zida vovillamaydi va uvillamaydi ham; ovozi yo'qoldimi yoki qaytdimi gohida ko'z ata olmaysan. Demak, avvalam bor hayvonni cho'zilgan bo'yni va erkin tanasi bilan chalqanchasiga yotgan vaqtda



o'zingdagi bor urinishing va qo'lingdagi bor vositalar bilan mahkam qilib taxtaga bog'lab qo'yishing kerak. Demak, endi men o'tkir ustarada teri va uning ostidagi mushaklarni ajratish uchun va kesim boshqa tomonga chiqib ketib katta qon tomiriga shikast yetkazmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan nafas bo'g'izigacha o'z un kesim o'tkazaman. Undan keyin men qo'limga nafas tomog'ini olaman va faqatgina barmoqlarning o'zi yordamida unga yopishgan mushaklarni ajratib olib, uyqu arteriyalari va ularga cho'zilgan miya nervlarining oltinchi juft nervlarini ko'rib chiqaman; undan keyin esa nafas tomog'ining yon tomonlariga birlashtirilgan orqaga qaytadigan nervlarni sinchiklab qarayman va ularni ba'zan bog'lab qo'yaman, ba'zida kesib tashlayman".

Ikkinchi bosqich taxminan yo'z yilni egallaydi va XX asrga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda etika nuqtai nazaridan hayvonlar ustidan tajribalar o'tkazishni qoralagan jamoat chiqishlari va hayvonlarni himoya qilish harakati boshlanadi. Shafqatsiz tajribalarni tugatishga yo'naltirilgan ilk tashkilotlar tO'z iladi. Misol uchun, 1878 yilda Buyuk Britaniyada eksperimental hayvonlar himoyasiga qaratilgan va og'riqni qoldiruvchi dorilardan foydalanishni taqozo etadigan, hamda ular bilan ishlashni aniq belgilaydigan qonun qabul qilingan.

Ma'lum ma'noda jamoat fikrining bu darajada o'zgarishi inson hayvonlar bilan qardosh ekanligini anglab yetilishining natijasidir. Bunga barcha turdagi tirik organizmlar vaqt o'tib rivojlana borishi va umumiy ajdodlardan kelib chiqishi haqidagi g'oyani asoslab bergan va birinchilardan bo'lib shu xulosaga kelgan ingliz tabiatshunosi va sayohatchisi Charlz Darvinning (1809-1882) asarlari yordam bergan.

Shunga qaramay azob beradigan tajribalar XIX asrda ham davom etgan. Masalan, fransO'z shifokori Klod Bernar (1813-1878) kuchuklar, quyonlar va kaptarlarni maxsus pechlarga joylashtirib, ularni halok bo'lishini kO'z atgan holda yuqori haroratlarni hayvonlarga ta'sir etishini o'rgangan. Hayvonlar selsiy bo'yicha 90-100 gradusga teng bo'lgan xaroratlarda nobud bo'lishardi. "Hayvonlarda xar doim bir xil bo'lgan o'ziga xos simptomlar kO'z atiladi. Boshida hayvon biroz asabiylashadi. Hademay nafas olishi va qon aylanishi tezlashadi. Hayvon og'zini ochib shiddat bilan nafas ola boshlaydi. Ko'p o'tmay uning azoblarini ta'riflash chidab bo'lmaydigan darajada bo'ladi; oxiri u talvasada qulaydi va odatda baland hayqiriqlar bilan nobud bo'ladi" - deb yozadi Bernar.

Biotajriba rivojlanishining uchinchi bosqichi XX asr hisoblanadi. XX asrning 1920-yillaridan boshlab Amerika va boshqa bir qator davlatlarning oliy o'quv muassalaridagi ta'lim jarayonini rivojlangani sari hayvonlarni yorish o'quv dasturining ajralmas qismi bo'lgan



Baqa viviseksiyasi

Hayvonlardan foydalaniladigan mashg'ulotlar sonini ko'payishi va bunga parallel ravishda jamoat bezovtaligi ham kuchayib borgan. 1981-yilda oliy o'quv yurtigacha ta'limda "Amaliyot kodeksi" ni qabul qilinishiga Tabiiy fanlar o'qituvchilari milliy assotsiatsiyasi (NSTA - National Science Teachers Association) va Biologiya o'qituvchilari milliy assotsiatsiyasi (National Association of Biology Teachers) imkon bergan. Uning nizomlari shaffof bo'lgan: "Hayvon sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadigan yoki uni og'ritadigan, nohushlik tug'diradigan hech bir tajriba sut emizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchi hayvonlar va baliqlarda o'tkazilmasligi kerak. Empirik qoida o'rnida talaba faqat insonlarda o'tkazilishi mumkin bo'lgan va ularning sog'lig'iga havf tug'dirmaydigan va og'riqsiz tajribalarni umurtqali hayvonlarda o'tkazishi mumkin".

Bu bosqich eksperimental fan ko'rinishini o'zgartirishda, xatto tirik hayvonlarda tajriba o'tkazishlarni bekor qilishda shifokorlarni ishtirok etishi bilan farq qiladi. Hayvonlardan foydalangan holda tibbiy-biologik tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha halqaro tavsiyalarni qabul qilinishi ushbu urinishlarning natijasi bo'ldi. Yevropa kengashi h'O'z uridagi Halqaro Sog'liqni Saqlash Tashkilotining tibbiy-ilmiy tadqiqotlar bo'yicha Konsultativ qo'mitasi ushbu tavsiyalarni 1984-yilda tasdiqlagan. 1986-yilning mart oyida Strasburg shahrida Yevropa Kengashi tomonidan "Tajriba va boshqa ilmiy maqsadlarda foydalanilayotgan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi" qabul qilingan.

Viviseksiyaga nisbatan qabul qilingan qonunchilik va jamoat fikriga qaramay bizning zamonda ham shafqatsiz tajribalar olib borilmoqda.

Doktor R. Sharp o'z kitobida shunday deb yozadi: "Har yili Buyuk Britaniyaning o'zida ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida millionga yaqin hayvonlar azob chekadi va nobud bo'ladi. Ularni kuydirishadi, ustidan qaynoq suv quyishadi, zaharlashadi va ochdan o'ldirishadi, elektr razryadlar yordamida qiynoqqa solib, giyohvand

moddalarga ko‘niktirib qo‘yishadi; mO‘z lash nuqtasiga yaqin bo‘lgan past darajadagi haroratlar ta‘siriga yo‘liqtirishadi, dunyoga kelishi bilan ularni zulmatda saqlashadi va ularda artrit, saraton, diabet, og‘iz bo‘shlig‘i infeksiyasi, oshqozon yarasi, sifilis, gerpes va OITS kabi kasalliklarni keltirib chiqarishadi. Jarrohlik yo‘li bilan ularning ko‘zlari olib tashlanadi, miyaga jarohatlar yetkazishadi va suyaklarini sindirishadi. Harbiy tadqiqotlar davomida hayvonlarni gaz, sianli birikmalar bilan zaharlab, plastik o‘qlar bilan otib tashlashadi va katta tezlikda xarakatlanadigan zambarak o‘qlari bilan tan jarohat yetkazishadi”.

Shu bilan bir vaqtda biologiya fanining turli yo‘nalishlarida amalga oshiriladigan jonli tabiat tilsimlarini bilishga bo‘lgan ehtiyoj insonning qonida bor. Bundan tashqari, aslini olganda tibbiy va biologik tajribalarni amalga oshirish chog‘idagi tadqiqotchilarning xarakatlari sof biologik (ham alohida bir individning, ham butun bir turning saqlanib qolishi), hamda ijtimoiy qonun (sog‘lom va yaxshi hayot kechirishga intilish), ya‘ni bularni barchasini turning saqlanib qolish hissiyoti sifatida qabul qilish mumkin. Oldinda turgan muammolarni hal qilish uchun inson doim hayvonlarda tajribalar o‘tkazishga majbur. Busiz genetika, biokimyo, normal va patologik fiziologiya, farmakologiya, toksikologiya, gigiena va fanning boshqa sohalarida tadqiqotlarning iloji bo‘lmas edi. Hayvonda olib borilgan tajribalarsiz Paster, Bernar, Majandi, Sechenov, Pavlov, Kennon va boshqa ko‘pgina olimlar zamonaviy biologiya va meditsinaga kuchli turtki bergan o‘z ixtirolarini qilishmagan bo‘lishardi. Bunday tajribalarni insonda o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmasligi sababli, aynan hayvonlarda o‘tkaziladigan tajribalarda zaharlar, jarohatlar, ionli nurlanish, yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilar va boshqa patogen omillarni organizmga ko‘rsatadigan ta‘siri modelini yaratishadi. Buning uchun milliardga teng hayvonlar jonini qurbon qilishga to‘g‘ri keladi va inson ularga cheksiz minnatdordir



Rossiya



Fransiya



Rossiya